



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki



FAKTORING XIZMATLARI BOZORI SHARHI

2025-yil I chorak

Toshkent 2025


Mazkur **Faktoring xizmatlari bozori sharhi** O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlariga qisqa muddatli moliyaviy qo'llab - quvvatlash instrumenti sifatida ommalashayotgan faktoring xizmatlarining joriy holati, rivojlanish tendensiyasi, hududlar va iqtisodiyotning asosiy sektorlari kesimidagi qamrovi, shu bilan birga xalqaro faktoringni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izohlaydi.

I. Mahalliy faktoring operatsiyalari


2025-yilning I choragida moliya agentlari tomonidan jami **1,3 trln** so'mlik faktoring xizmatlari ko'rsatilib, ushbu xizmatlarning **1,2 trln** so'mi yoki **90 foizi** tijorat banklari va **126 mlrd** so'mi yoki **10 foizi** mikromoliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan (1-rasm).

Bunda, ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining **942 mlrd** so'mi yoki **73 foizi** raqamli faktoring xizmatlari hissasiga to'g'ri kelib, ushbu faktoring xizmatlarining **544 mlrd** so'mi (58 foiz) Finmakon platformasi, **398 mlrd** so'mi (42 foiz) Ozplanet platformasi tomonidan amalga oshirilgan (2-rasm).

1-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm



2-rasm. Faktoring xizmatlari hajmi, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Joriy yilning o'tgan I choragida, kichik va o'rta biznes vakillarida aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni faktoring xizmatlaridan foydalanish ishlarining ommabopligi oshganligi natijasida ushbu xizmatlar 2024-yilning IV choragiga nisbatan sezilarli darajada **1,1 barobarga** oshdi.

Bunda, 2024-yilda faktoring xizmatlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich dekabr oyida **630 mlrd** so'mga yetgan bo'lsa, joriy yilning mart oyida bu ko'rsatkich **680 mlrd** so'mni tashkil etdi (3-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-sonli farmoni imzolanganidan keyin, 2024-yilning so'nggi 4 oyida kredit tashkilotlari tomonidan 1,2 trln so'm miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatildi.

3-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yilning I choragida faktoring xizmatlarining oylik dinamikasi, mlrd so'm



Manba: Tijorat banklari ma'lumotlari


2025-yilning I choragida tadbirkorlik subyektlariga **davlat ulushi mavjud tijorat banklari** tomonidan jami **687 mlrd** so'm (59 foiz), **xususiy banklar** tomonidan jami **476 mlrd** so'm (41 foiz) miqdoridagi faktoring xizmatlari ko'rsatilgan.

Xususan, eng ko'p faktoring operatsiyalari davlat ulushi mavjud tijorat banklarida, jumladan, **Asaka bank** (202 mlrd so'm shundan, elektron platforma orqali 198 mlrd so'm), **O'zsanoatqurilishbank** (194 mlrd so'm, 182 mlrd so'm), **O'zmilliybank** (108 mlrd so'm, 49 mlrd so'm) hissalariga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, xususiy banklar orasida **Kapital bank** – 130 mlrd so'm (31 mlrd so'm), **Hamkor bank** – 128 mlrd so'm (128 mlrd so'm) va **Asia Alliance bank** – 66 mlrd so'm (36 mlrd so'm) bilan faktoring xizmati ko'rsatishda yetakchilik qilgan.

Shu bilan birga, **mikromoliya tashkilotlari** tomonidan ushbu davrda jami 126 mlrd soʻmlik debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (4-rasm).

4-rasm. Kredit tashkilotlari kesimida 2025-yilning I choragida koʻrsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, mlrd soʻm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bugungi kunda, tadbirkorlarga taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish, ularga xilma-xil zamonaviy bank mahsulotlarini taqdim etish hamda tijorat banklarining qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarida faktoring xizmatlarini alternativ yechim sifatida keng koʻlamda ommalashtirish choralari koʻrilmoqda.

Natijada, 2024-yilning soʻnggi choragida koʻrsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishga nisbati 2,9 foizdan (oktyabr) 6,1 foizga (dekabr) oshgan boʻlsa, joriy yilning yanvar-mart oylarida ushbu koʻrsatkich **4,4 foizdan 9,1 foizga** koʻtarildi (5-rasm).


5-rasm. 2024-yil va 2025-yilning I choragida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishdagi ulushi, foiz



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hududlar kesimida 2025-yilning I choragida ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining asosiy qismi Toshkent shahrida **842 mlrd** so'm (65,3 foiz), Farg'ona viloyatida **128 mlrd** so'm (9,9 foiz), Andijon viloyatida **106 mlrd** so'm (8,2 foiz) va Buxoro viloyatida **52 mlrd** so'm (4,1 foiz) miqdorida shakllangan (6-rasm).

6-rasm. Hududlar kesimida 2025-yilning I choragida ko'rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlarining taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga **966 mlrd** so'm yoki **75 foiz** miqdorida faktoring xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, aksiyadorlik jamiyatlariga **209 mlrd** so'mni (16 foiz) tashkil etgan.

Shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining **102 mlrd** so'mlik (8 foiz) hamda xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xo'jaliklarining **11 mlrd** so'mlik (1 foiz) debitorlik qarzlarini faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (7-rasm).

7-rasm. Faktoring xizmatlari korxonalar tashkiliy shakli bo'yicha tahlili, mlrd so'm




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


Muddatlar qirgimida 30 kungacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 24 foizini, **31 kundan 60 kungacha** – 14 foizini, **61 kundan 90 kungacha** – 41 foizini, **91 kundan 120 kungacha** – 12 foizini hamda **121 kundan 180 kungacha** – 9 foizini tashkil qilgan (8-rasm).

Miqdorlar kesimida jami faktoring xizmatlarida **100 mln** so'mgacha bo'lgan faktoring xizmatlari ulushi – 7 foiz, **100 mln** so'mdan **500 mln** so'mgacha – 32 foiz, **500 mln** so'mdan **1 mlrd** so'mgacha – 17 foiz, **1 mlrd** so'mdan **5 mlrd** so'mgacha – 37 foiz hamda **5 mlrd** so'mdan yuqori faktoring xizmatlari – 7 foiz hissasiga to'g'ri keladi (9-rasm).

8-rasm. Faktoring xizmatlari muddatlari bo'yicha tahlili, foiz



9-rasm. Faktoring xizmatlari miqdorlari bo'yicha tahlili, foiz




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha faktoring xizmatlarining asosiy qismi **savdo** va **xizmat ko'rsatish** sohasiga **587 mlrd so'm** (46 foiz) hamda **sanoat** sohasiga **571 mlrd so'm** (44 foiz) mablag'lar yo'naltirilgan.

Shuningdek, **qurilish** va **qishloq xo'jaligi** sektorlarida har biri mos ravishda **69 mlrd so'mlik** (5 foiz) va **61 mlrd so'mlik** (5 foiz) debitorlik qarzidorliklari moliyalashtirildi (9-rasm).

10-rasm. Iqtisodiyot sohalari bo'yicha ko'rsatilgan faktoring xizmatlari, foiz



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

II. Xalqaro faktoring operatsiyalari

Eksportyor tadbirkorlarga zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hamda faktoring xizmatlarini yanada rivojlantirish maqsadida **21 ta tijorat banklari** tomonidan **xalqaro faktoring** mahsulotlari ishlab chiqilgan.

Joriy yilning yanvar-mart oylari davomida mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarga **4,6 mlrd** so'm ekvivalentidagi regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmati ko'rsatildi. Bunda, ko'rsatilgan xalqaro faktoring xizmati **245,6 ming AQSH dollari** va **9,9 mln Rossiya rublida** amalga oshirilgan.

Shuningdek, xalqaro faktoring xizmatlarini rivojlantirish ishlari doirasida mahalliy tijorat banklari **Asia-Invest bank AJ** bilan **agentlik xizmatini** ko'rsatish bo'yicha hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar imzolagan.

Hisobot sanasida **Aziya-Invest bank** tomonidan eksportyor korxonalarga O'zmilliybank, Asaka bank va Invest Finans bank bilan tuzilgan **agentlik xizmati shartnomalari** asosida jami **221,7 mlrd** so'm ekvivalentidagi xalqaro faktoring amalga oshirilgan.

Jumladan, ushbu **agentlik shartnomasi doirasida** amalga oshirilgan xalqaro faktoring xizmati **2,5 mln AQSH dollari** va **1 168,8 mln Rossiya rublida** ko'rsatilgan.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025-yil

Mazkur sharh Mikromoliya bozori ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish departamenti tomonidan tayyorlandi.

O'z taklif va e'tirozlaringiz quyidagi manzilga jo'natishingiz mumkin:

E-mail: f_nematov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-73-17